



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
BOSMA OAV VA NOSHIRLIK ISHI FAKULTETI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI  
KAFEDRASI**

**“MEDIALINGVISTIKA: NAZARIYA VA AMALIYOT” MAVZUSIDAGI II XALQARO  
ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**

**A X B O R O T X A T I**

O‘zbek tiliga Davlat tili maqomi berilganining 32 yilligi munosabati hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining Davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti Bosma OAV va noshirlik ishi fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasidan O‘zbekiston Jurnalistlari ijodiy uyushmasi hamda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi hamkorligida 2021-yil 17-noyabr kuni **“Medialingvistika: nazariya va amaliyot”** mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkaziladi.

**Anjuman ilmiy yo‘nalishi quyidagi sho‘balar asosida maqolalar qabul qiladi:**

- ✓ medialingvistika nazariyasi va amaliyoti;
- ✓ onlayn jurnalistika: til, uslub muammolari;
- ✓ matbuot materiallari tahlili va tahriri;
- ✓ tarjima mahorati: OAVdagi tarjima matnlari tahlili;
- ✓ notiqlik mahorati;
- ✓ audiovizual jurnalistikada medialingvistika masalalari;
- ✓ PR: mahorat masalalari;
- ✓ o‘zbek tilining sohada qo‘llanilishi;
- ✓ adabiyotshunoslik masalalari.

**Konferensiya ishchi tillari:** o‘zbek, qoraqalpoq, rus, ingliz, fransuz, nemis, ispan, ozarbayjon, turk.

**Konferensiyani o‘tkazish tartibi:** joriy yilning 17-noyabr kuni soat 10.00da ZOOM dasturida o‘tkaziladi.

**Konferensiyaga ulanish havolasi:**

<https://zoom.us/j/7670272289?pwd=ZERRV1dHdFV5cDRVQ1VORzluMIJQZz09>

**Konferensiyada ishtirok etish shakli:** yalpi/yo‘nalishlar bo‘yicha videoma‘ruzalar; muhokamalarda ishtirok etish.

**Konferensiyada onlayn ishtirok etish shartlari:** ma’ruzachilar konferensiyaga yuborayotgan maqolalarini matn hamda 3–4 daqiqalik videoma’ruza shaklida tashkiliy qo‘mita elektron manziliga yuborishlari lozim.

**Maqola va tezislarni rasmiylashtirishning texnik talablari:** matn hajmi 3–5 bet, Microsoft Word formatida, Times New Roman shriftida, 14 kegel kattalikda, 1,5 intervalda, chapdan 3 sm, o‘ngdan 1,5 cm, yuqoridan va pastdan 2 sm joy qoldirib yoziladi. Maqolaning yuqori qismi o‘rtasida maqola sarlavhasi bosh harflarda, keyingi qatordan o‘ngda muallif haqida ma’lumotlar: ismi-sharifi, ilmiy daraja va unvoni (agar bo‘lsa), oliy o‘quv yurti nomi va telefon raqami keltiriladi. Shuningdek, annotatsiya, kalit so‘zlar berilib, foydalanilgan adabiyotga ishoralar kvadrat qavslarda [manba raqami, sahifa raqami] beriladi va maqolada ko‘rsatilishi bo‘yicha tartiblanadi. Maqola oxirida foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati matndagi tartib bilan keltirilsin. Fayl nomi muallif familiyasi bilan mos kelishi kerak. Masalan: Mirzayeva N. – talabnoma; Mirzaeva N. – maqola.

Anjuman to‘plamida e‘lon qilinadigan maqola uchun badal puli har sahifaga 15 000 so‘m. (Bakalavr kunduzgi talabalari uchun bepul.) Ishtirokchilarga konferensiya materiallari to‘plami pdf shaklda elektron taqdim etiladi. Konferensiya ishtirokchilariga sertifikat beriladi. Tashkilotchilar maqolalarni saralash va tahrir qilish huquqiga ega.

**Elektron manzil:** [ozbek.tili.2021@gmail.com](mailto:ozbek.tili.2021@gmail.com)

#### ANJUMAN TALABNOMASI SHAKLI

Familiyasi	
Ismi	
Sharifi	
Ish joyi, lavozimi (to‘liq)	
Ilmiy darajasi va unvoni	
Telefon raqami (mobil)	
E-mail	
Maqola nomi	

## **JURNALISTIKAGA MULTIMEDIANING KIRIB KELISHI, BOSQICHLARI, SHAKLLARI**

**Nigina Alimdjanovna Hakimova,**

O‘zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,  
Internet-jurnalistika fakulteti, Raqamli media va internet jurnalistika  
kafedrası 2-kurs magistranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada multimedianing jurnalistikaga kirib kelish bosqichini o‘rganish orqali multimedaviy formatlar qachondan boshlab OAVda tadbiq etilganligiga guvoh bo‘lish, multimedaviylik bo‘yicha jahon amaliyotchilarining fikrlari bilan tanishish, jurnalistikada multimedaviy formatlardan foydalanish imkoniyatlari bo‘yicha nazariy bilimlarga ega bo‘lish mumkin.

**Kalit so‘zlar:** multimedia, internet-jurnalistika, texnologiya, OAV, infografika.

MATN: .....[4; 95].

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. //http://multimedirect.livejournal.com. (15.06.2011).
2. Multimedia. // https://ru.wikipedia.org. (15.02.2012)
3. Лукина М.М. Интернет-СМИ: теория и практика. – М.: Аспект Пресс, 2010. 343 с.
4. Stencil M. //https://online.journalism.utexas.edu.(2004)
5. Burnett R., Burnstorm A., Nilssen A. Perspectives on multimedia. – England: Wiley, 2003. 4-p.